

lim maktabining 2025-2026- o'quv yilida o'quvchilarni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test, savol.

7- sinf o'quvchisi

F.I.SH. BSB-1 (20 ball)

O'quvchi to'plagan umumiy ball: (maksimal ball -20)

1-Amaliy mashg‘ulot. O‘simlik va hayvonot dunyosining sistematik guruhlarini o‘rganish

Maqsad: o‘simlik va hayvonot dunyosining asosiy sistematik guruhlarini sxematik modellashtirish.

Bizga kerak: oq qog‘oz, rangli qalamlar, chizg‘ich.


Ishni bajarish tartibi:

1-topshiriq (jami4ball)

2 ball Gulli o‘simliklar qanday sinflarga bo‘lib o‘rganiladi?





2 ball Xordahilar tipiga kiruvchi hayvonlar qanday umumiy xususiyatga ega bo'ladilar?

2-topshiriq (*jami: 4 ball*) O‘simliklar sistematikasining asosiy taksonomik guruhlar sxemada aks ettirilgan. Sxemani daftaringizga chizing. Berilgan so‘zlardan foydalanib, sxemadagi katakchalarga o‘simliklar sistematikasiga so‘zlarni yozing.



Foydalanish uchun soʻzlar: oʻsimliklar dunyosi, yopiq urugʻlilar boʻlimi, ikki urugʻpallali oʻsimliklar sinfi, bir urugʻpallali oʻsimliklar sinfi, karamgullilar tartibi, bugʻdoygullilar tartibi, karamdoshlar oilasi, bugʻdoydoshlar oilasi, jagʻ-jagʻ, joʻxori, oddiy jagʻ-jagʻ, oq joʻxori


3-topshiriq (jami: 4 ball) Jadval qatorlarida keltirilgan urugʻli oʻsimliklar organlari rasmlarni oʻrganing. Rasmdagi oʻsimlik organlari bilan tanishing.

Urugʻ	Gul	Barg	Poya	ildiz
				

a) Rasm asosida oʻsimlik organlarini umumiy belgilariga koʻra birlashtirib, ular tegishli boʻlgan sistematik birlik nomini yozing (masalan, sinf yoki boʻlim). 2 ball

b) Shu birlikka mansub oʻsimlikka misol keltiring. 2 ball

4-topshiriq (jami: 2 ball) Sistematik sxemani tahlil qiling va raqamlar oʻrniga mos keluvchi sistematik birlik nomi hamda unga tegishli bitta vakilni yozing.



1) _____

2) _____

5-topshiriq (jami: 6 ball) Rasmda berilgan hayvonlarga sistematikada o'z o'rnini topishda yordam bering. Har bir hayvonni o'zi mansub guruhlariga joylashtiring. Uy mushugi bilan rasmda berilgan hayvonlarning o'zaro qarindoshligining yaqin yoki uzoqligi haqida guruhda muhokama qiling. Jadval kataklaridagi har bir raqamlar sistematik birlikdagi darajasi bir xil hayvonlar nomini yozing.

Xordalilar tipi							
Umurtqalilar kenja tipi	1	1	1	1	1		
Sut emizuvchilar sinfi	2	2	2	2			
Yirtqichlar turkumi	3	3	3				
Bo'risimonlar oilasi	4	4					
Tulkilar urug'i	5	5					
Shimol tulkisi							



Bajarish: Jadvaldagi katakchalarga berilgan hayvonlardan mosini tanalang.

a) 1- raqam o'rniga berilgan hayvonlardan mos keluvchi hayvonlar nomini yozing.

b) 2- raqam o'rniga berilgan hayvonlardan mos keluvchi hayvonlar nomini yozing.

d) 3- raqam o'rniga berilgan hayvonlardan mos keluvchi hayvonlar nomini yozing.